


Vazirlar Mahkamasi koronavirusga oid yana bir qarorni qabul qildi



“Koronavirus pandemiyasi davrida tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm va qurilish sohalarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (665-son, 29.10.2020 y.) qabul qilindi.

Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'siri oqibatida zarar ko'rgan va ko'rayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat va turizm sohalarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik sub'yektlarini hamda zamonaviy uy-joy qurilishi bilan band bo'lgan qurilish-pudrat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlarining avtotransport vositalari parkini yanada yangilash va modernizasiya kilish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Qarorga ko'ra, 2022 yil 31 dekabrgacha quyidagilarga utilizasiya yig'imining nol stavkasi qo'llaniladi.

Yuk tashish uchun mo'ljallangan "Yevro-5" va undan yuqori ekologik toifa talablariga mos keladigan shatakchi avtomobillar (TIF TN kodi 8701 20, ishlab chiqarilganiga 4 yildan oshganlari bundan mustasno), shuningdek, tirkamalar va yarim tirkamalar (TIF TN kodlari 8716 31, 8716 39, ishlab chiqarilganiga 5 yildan oshganlari bundan mustasno);

yuk tashish uchun mo'ljallangan yangi transport vositalari (TIF TN kodlari 8704 22, 8704 23) hamda maxsus mo'ljallangan yangi transport vositalari (TIF TN kodi 8705 10, 8705 40, 8705 90);

haydovchi bilan birga 10 va undan ortiq yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan, "Yevro-5" va undan yuqori ekologik toifa talablariga mos keladigan transport vositalari (TIF TN kodi 8702, ishlab chiqarilganiga 4 yildan oshganlari bundan mustasno).

O'zA